

## ZAMONAVIY TIISHUNOSLIK MUAMMOLARI, GLOBALLASHUVNING TILGA TA'SIRI VA MADANIY XILMA-XILLIK

*Bekkulova Khojar Zayniddinovna*  
*Senior teacher ,Uzbekistan-Finland*  
*pedagogical institute, Samarkand*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning maqsadi tilshunoslikning zamonaviy muammolarini, globallashuv va til xilma-xilligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishdir. Globallashuv jarayoni tillar va madaniyatlarning ta'siri va o'zaro ta'sirini qanday o'zgartirishini tushunish uchun globallashuv jarayonining tarixiga va uning ko'lamiga alohida e'tibor beriladi. Globallashuv nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tilshunoslik sohalarida ham chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Maqolada globallashuvning dastlabki bosqichlari, uning asosiy sabablari va omillari, shuningdek, globallashuv jarayonida tillarning o'zaro ta'siri qanday o'zgaganligi tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** global iqtisodiy aloqalar, xalqaro tashkilotlar, madaniyatlar almashinushi, tilga oid resurslar, kichik va mahalliy tillar.

### ABSTRACT

The purpose of this article is to consider contemporary issues in linguistics, the complex relationships between globalization and linguistic diversity. Particular attention is paid to the history of the globalization process and its scale in order to understand how the process of globalization changes the influence and interaction of languages and cultures. Globalization has led to profound changes not only in the economic sphere, but also in the cultural and linguistic spheres. The article analyzes the early stages of globalization, its main causes and factors, as well as how the interaction of languages has changed in the process of globalization.

**Keywords:** world economic relations, international organizations, cultural exchange, language resources, small and local languages.

### АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является рассмотрение современных проблем языкоznания, сложных взаимосвязей между глобализацией и языковым разнообразием. Особое внимание уделяется истории процесса глобализации и его масштабам, чтобы понять, как процесс глобализации меняет влияние и взаимодействие языков и культур. Глобализация привела к глубоким изменениям не только в экономической, но и в культурной и языковой сферах. В статье анализируются ранние этапы глобализации, ее основные причины и факторы, а также то, как менялось взаимодействие языков в процессе глобализации.

**Ключевые слова:** мировые экономические отношения, международные организации, культурный обмен, языковые ресурсы, малые и местные языки.

### **KIRISH**

Globallashuv (ingliz tilida globalization) — bu dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar, integratsiya va o'zaro bog'lanishlarning chuqurlashish jarayonini anglatadi. Globallashuv zamonaviy jamiyatlar uchun yangilik bo'lmasada, uning intensivligi va tezligi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida sezilarli darajada ortdi. Globallashuvning asosiy omillari texnologik yangiliklar, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro savdoning kengayishi, transport tarmoqlarining global darajada integratsiyalashuvi va kapitalning erkin harakati hisoblanadi.

### **ASOSIY QISM**

Globallashuvning dastlabki bosqichlari qadimgi davrlarga borib taqaladi, chunki odamlar o'zaro savdo, madaniyat almashish va bilimlar tarqatish maqsadida uzoq masofalarga sayohat qilishgan. Bu aloqalar asosan savdo yo'llari orqali amalga oshgan va eng mashhur bo'lganlardan biri Ipak yo'lidir. Ipak yo'li nafaqat tovarlar, balki turli xil madaniy, diniy va ilmiy g'oyalari ham almashgan. Masalan, Xitoydan Hindiston va Markaziy Osiyo orqali Yevropaga qadar bo'lgan bu savdo yo'li orqali ipak, ziravorlar, ko'k choy kabi tovarlar tarqalgan, shu bilan birga, Buddizm, Xristianlik va Islom kabi dinlar ham o'z ta'sirini yoygan. "Ipak yo'li haqida ma'lumotga ega bo'lgan odamlar birinchi navbatda ipakning Rimga olib o'tilishi yoki buddizmning Hindistondan Xitoya tarqalishi haqida o'ylashadi. Hatto, shubhasiz bundanda ko'proq", "Ipak sirli hashamatli buyumning namunasidir, buning uchun mintaqadagi odamlar yuqori narxlarni to'lashga va hatto o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishga tayyor edilar", "Va "yo'l" quruqlik bo'ylab sayohat qilgan o'sha moddiy mahsulotlar almashinuvini anglatadi, garchi bu tom ma'no metaforik Ipak yo'lining bir qismi bo'lishi mumkin bo'lgan madaniy va ma'naviy almashinuvlarni o'z ichiga olishi uchun kengaytirilishi kerak"<sup>1</sup> Bunda, Xitoy, Hindiston, Fors, Arabiston va Yevropaning turli hududlari o'rtasida o'zaro ta'sirlar kuchayib, turli madaniyatlar o'rtasida farqlarga qaramay o'zaro o'rganish va almashish jarayoni boshlanib, globallashuvning dastlabki asoslari yaratildi. Bu davrda odamlar nafaqat savdo qilgan, balki yangi texnologiyalar, ilmiy bilishlar, san'at va adabiyotlarni bir-biriga taqdim etgan, bu esa insoniyat tarixida ilk global aloqalar shakllanishiga olib kelgan.

15-19 asrlarda Yevropa davlatlari, xususan Ispaniya, Portugaliya, Buyuk Britaniya va Fransiya, dunyoning turli qismlarini mustamlaka qilib, yangi savdo yo'llarini ochish orqali global iqtisodiy aloqalarni kengaytirdi. Bu davrda Yevropaning

<sup>1</sup> Richard Kennedy. 2002 Folklife Festival, The Silk Road: Connecting Cultures, Creating Trust, Folklife Resources

dengizchilik va sayohat sohasidagi texnologik taraqqiyoti, shuningdek, yangi geografik kashfiyotlar, masalan, Kristofor Kolumbning 1492 yildagi Amerika qit'asini kashf etishi va Vasko da Gamaning Afrika orqali Hindistonga borib kelishi, yangi savdo yo'llarining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Yevropa davlatlari bu sayohatlar orqali Amerika, Afrika va Osiyo kabi yangi hududlarga kirib, ularni o'z siyosiy va iqtisodiy ta'siri ostiga olishdi. Natijada, mustamlakachilik davri boshlandi, bu davrda Yevropa davlatlari boshqa mintaqalarda o'zlarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish uchun imperialistik strategiyalarni qo'lladilar.

Bundan tashqari, Ispaniya va Portugaliya ko'plab Amerika va Osiyo mamlakatlarida o'z hukmronligini o'rnatib, koloniya tizimini tashkil etdilar. Buyuk Britaniya esa, o'zining mustamlakalarini kengaytirish orqali, Indiya, Kanada va Avstraliyani o'z ta'siri ostiga oldi. Frantsiya esa, asosan Afrika va Karib dengizi mintaqalarida mustamlakalar o'rnatdi. Bu mustamlakalar orqali Yevropa davlatlari nafaqat o'z iqtisodiy foydalarini oshirish, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yangi yerlar, xom ashyo va mehnat kuchini ham olishdi. Afrikadan olib kelinayotgan qullar va sahro hududlaridan olingan kumush, oltin kabi qimmatbaho metallar ham Yevropa iqtisodiyotiga katta hissa qo'shdi.

Shuningdek, bu davrda yangi savdo yo'llari orqali o'zgacha madaniy almashinuvlar amalga oshdi. Yevropa san'ati, adabiyoti va ilm-fani Osiyo, Afrika va Amerika madaniyatlaridan yangi g'oyalar, texnologiyalar va mahsulotlar o'rganib olindi. Masalan, Tegishli baharatlar (ziravorlar, choy, kofe) va ipak kabi mahsulotlar Yevropaga olib kelingan va ular yangi savdo tarmoqlarini shakllantirishga olib kelgan. Boshqa tomondan, Yevropa madaniyati, dini va texnologik bilimlari, masalan, Xristianlik va qishloq xo'jaligi texnologiyalari, yangi joylarda keng tarqaldi. Biroq, bu davrda madaniyatlar o'rtasida almashinuvning o'zi bir tomonlama bo'lib, ko'pincha Yevropaning mustamlaka xalqlari ustidan amalga oshirilgan kuchli ta'sir ko'rinishida namoyon bo'ldi.

Mustamlakachilik davri davomida Yevropa davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqliklar ham kuchayib, dunyo miqyosidagi savdo tarmog'i yanada murakkablashdi. Yevropa mamlakatlari o'rtasida o'zaro savdo, valyuta almashinuvi va iqtisodiy kelishuvlar asosida yangi iqtisodiy tizimlar yaratildi. Imperialistik davlatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, savdo yo'llarini monopoliyaga olish va o'z ta'sirini kengaytirish uchun mustamlakalarni boshqarishda turli siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni qo'lladilar.

Shunday qilib, 15-19 asrlar davomida Yevropa davlatlarining dunyoning turli qismlarini mustamlaka qilish va yangi savdo yo'llarini ochish jarayoni globallashuvning boshlanishiga olib keldi. Bu davrda dunyo iqtisodiyoti va madaniy bog'liqligi mustahkamlanib, yangi savdo tarmoqlari va xalqaro aloqalar shakllandı,

ammo bularning aksariyati Yevropaning siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga asoslanib amalga oshirildi.

XX asrning boshlariga kelib, sanoat inqilobi va transport tarmoqlarining rivojlanishi global savdoni sezilarli darajada tezlashtirdi. Yangi texnologiyalar, ayniqsa, temir yo‘l tarmoqlari, kemalar va aviatsiya sohasidagi inqilobiy yutuqlar, shuningdek, elektron kommunikatsiyalar va telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, tovarlar va xizmatlarning dunyo bo‘ylab tez va samarali tarzda almashinuvini ta’minladi. Bu o‘zgarishlar o‘z navbatida, global savdo tarmoqlarini mustahkamlashga, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishga va iqtisodiy aloqalarni yanada osonlashtirishga olib keldi.

Birinchi jahon urushi (1914–1918) va Ikkinci jahon urushi (1939–1945) global iqtisodiyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Urushlar jahon iqtisodiyotini qattiq titratgan bo‘lsa-da, urushdan keyingi davrda, 1940-yillarning oxiriga kelib, iqtisodiy qayta tiklanish boshlandi. Yevropa, Osiyo va Amerikada urushdan zarar ko‘rgan mamlakatlar o‘z iqtisodiyotlarini tiklashga, sanoatni yangilashga va savdo aloqalarini tiklashga kirishdilar. Bunda, xususan, AQShning jahon iqtisodiyotidagi roli oshib, dunyo miqyosida iqtisodiy bo‘hronlarni bartaraf etish va kelajakdagi global aloqalarni yanada chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan yangi tizimlar yaratildi.

Urushdan keyin, jahon iqtisodiyotining barqarorligini ta’minalash, yangi xalqaro iqtisodiy tizimni yaratish va mustahkam xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida, yangi xalqaro tashkilotlar tuzildi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Dunyo Savdo Tashkiloti (WTO) kabi tashkilotlar tuzilishi orqali davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘zgacha bir asosga ega bo‘ldi. BMT, o‘zining tinchlikni saqlash va rivojlanish siyosatlari bilan, global siyosiy barqarorlikni ta’minalashga harakat qildi<sup>2</sup>. IMF va WTO esa, o‘z navbatida, xalqaro moliya va savdoni boshqarishda asosiy rolni o‘ynab, dunyo bo‘ylab erkin savdo va moliyaviy aloqalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Ushbu tashkilotlar, dunyo iqtisodiyotining barcha sohalarida hamkorlik va integratsiyani ta’minalashga xizmat qilib, global aloqalarni chuqurlashtirdi.

Shuningdek, Marshall rejasi kabi iqtisodiy dasturlar orqali, Amerika tomonidan Yevropa davlatlariga ko‘rsatilgan iqtisodiy yordam, urushdan keyingi tiklanishga katta hissa qo‘shdi. Bu jarayonlar, global miqyosda savdo, moliya va siyosiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi va XX asrning ikkinchi yarmida globallashuvning yangi davriga asos yaratdi. Bu davrda, xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalar nafaqat tezlashdi, balki ularning ko‘lamining yanada kengayishi, yangi texnologiyalar va savdo bloklari shakllanishi orqali davom etdi.

<sup>2</sup>UNDP (United Nations Development Programme) 1965-yil 22-fevralda tashkil etilgan

1980-yillardan boshlab, kompyuter texnologiyalari, internet va mobil aloqa vositalarining tezkor rivojlanishi globallashuv jarayonini yanada kuchaytirdi. Bu davrda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining innovatsion yutuqlari, ayniqsa, shaxsiy kompyuterlar, internet tarmoqlari, va mobil telefonlarning ommalashishi, millatlar o'rtasidagi chegara va masofalarni deyarli yo'q qilib, dunyo bo'y lab insonlar va kompaniyalar o'rtasida aloqalarni keskin tezlashtirdi. Kompyuter va internet texnologiyalari nafaqat ma'lumot almashish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirdi, balki ular o'zaro savdo, xizmatlar va bilimlar tarqatishning yangi usullarini ham yaratdi.

Internetning global miqyosda keng tarqalishi, masalan, World Wide Web (WWW) va e-mail xizmatlari, dunyo bo'y lab odamlarni birlashtirishga imkon yaratdi. Internetning tarqalishi bilan, onlayn savdo, e-commerce va digital marketing kabi yangi sohalar paydo bo'ldi, bu esa xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. O'z navbatida, mobil texnologiyalar va smartfonlarning ommalashishi insonlarning dunyo bo'y lab bir-biri bilan aloqada bo'lishini yanada osonlashtirdi. Mobil ilovalar, instant messaging (masalan, WhatsApp va Telegram) va video konferensiyalar orqali odamlar bir-biri bilan tez va samarali tarzda aloqada bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu texnologiyalar millatlar o'rtasidagi geografik va vaqt cheklovlarini deyarli yo'q qildi, natijada iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar tez sur'atda rivojlna boshladi. Masalan, offshoring va outsourcing kabi yangi biznes modellari paydo bo'ldi, chunki kompaniyalar global miqyosda ishchi kuchi va resurslardan foydalanishni boshladilar. Shuningdek, bulutli hisoblash texnologiyalari (cloud computing) orqali kompaniyalar va shaxslar o'z ma'lumotlarini global tarmoq orqali saqlash va boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa moliyaviy va axborot resurslarini dunyo bo'y lab almashishni soddalashtirdi.

Axborot texnologiyalari (IT) va raqamli iqtisodiyot yordamida global miqyosda bir nechta madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir yanada kuchaydi. YouTube, Instagram, TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar va platformalar dunyo bo'y lab foydalanuvchilarni birlashtirib, ularning o'z madaniyatlari, g'oyalari va san'ati bilan almashinishini ta'minladi. Shuningdek, global o'yin sanoati, onlayn ta'lim va global brendlari (masalan, Apple, Google, Amazon) dunyo bo'y lab madaniy va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirib, millatlar o'rtasida yagona, bir xil ma'lumot va xizmatlar tarmog'ini shakllantirdi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi orqali yangi global muammolar — masalan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarning maxfiyligi va sun'iy intellekt kabi masalalar yuzaga keldi, bu esa davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yangi hamkorlikni talab qilmoqda. Shuningdek, raqamli bo'linish (digital divide) muammosi

ham dolzarb bo‘lib, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida axborot texnologiyalariga kirish imkoniyatidagi tafovutni ko‘rsatadi<sup>3</sup>.

XXI asrda globallashuv yanada intensivlashdi, chunki dunyo bo‘ylab ko‘plab mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo kelishuvlari imzolandi, transmilliy kompaniyalar o‘sdi va madaniy almashinuv yanada kengaydi. Erkin savdo zonasining kengayishi va turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning rivojlanishi, masalan, Evropa Ittifoqi (EU), Shimoliy Amerika Erkin Savdo Kelishuvi (NAFTA), va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SCO), mamlakatlar o‘rtasidagi tovarlar va xizmatlar almashinuvini sezilarli darajada yengillashtirdi. Bu savdo kelishuvlari, o‘z navbatida, transmilliy kompaniyalarning o‘sishiga sabab bo‘ldi, chunki ular global miqyosda ishlab chiqarish va xizmatlar tarmoqlarini integratsiyalashda o‘z imkoniyatlarini kengaytirishdi. Kompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar mustahkamlanib, ko‘plab yirik brendlar va kompaniyalar o‘z faoliyatini global bozorlarga chiqarishga muvaffaq bo‘lishdi. Apple, Microsoft, Coca-Cola, McDonald’s, Amazon kabi kompaniyalar butun dunyo bo‘ylab o‘z brendlarini tarqatib, global iqtisodiy tizimda ulkan rol o‘ynay boshladilar.

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi odamlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada tezlashtirdi. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok kabi ijtimoiy media platformalari dunyoning turli burchaklaridagi odamlarni birlashtirib, o‘zaro muloqot qilish imkoniyatini yaratdi. Bu platformalar nafaqat shaxsiy aloqalar uchun, balki biznes va siyosiy sohalarda ham o‘zgarishlarga olib keldi. Kompaniyalar va davlatlar o‘z brendlarini targ‘ib qilish, foydalanuvchilarga xizmatlar taqdim etish, va xalqaro miqyosda reklama qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga o‘tdilar.

Bundan tashqari, internetning kengayishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi global madaniy almashinuvni yanada jadallashtirdi.

Global lashuvning ko‘lami juda keng bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy, texnologik va ekologik sohalarni qamrab oladi. Global lashuvning bu turli jihatlari bir-biriga chambarchas bog‘langan holda dunyo miqyosida integratsiya jarayonlarini kuchaytiradi. Quyida global lashuvning ko‘lamini turli jihatlari bilan ko‘rib chiqamiz:

**Iqtisodiy globallashuv.** Iqtisodiy globallashuv dunyo bo‘ylab kapital, tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakatini anglatadi. Bunga misol sifatida Xalqaro savdo va transmilliy kompaniyalarni keltirish mumkin. Xalqaro tashkilotlar, masalan, Dunyo Savdo Tashkiloti (WTO) va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), savdo va moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish uchun qoidalar va kelishuvlarni ishlab

<sup>3</sup> Massimo Ragnedda ,Glenn W. Muschert .The Digital Divide The internet and social inequality in international perspective .Published in the USA and Canada by Routledge 711 Third Avenue, New York, NY 10017

chiqadi. Xalqaro investitsiyalar va chegarasiz iqtisodiy aloqalar iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni yuzaga keltiradi.

**Madaniy globallashuv.** Madaniy globallashuv global miqyosda madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va almashinuvni anglatadi. Masalan, kino, musiqa, adabiyot va oziq-ovqat madaniyatining global tarqalishi — bu globallashuvning madaniy jihatidir. Hollywood kinolari, Bollywood filmlari, va K-pop kabi janrlar global miqyosda keng tarqaldi. Bundan tashqari, global brendlar, masalan, McDonald’s, Coca-Cola, Nike kabi kompaniyalar dunyoning turli burchaklarida o‘z madaniy izlarini qoldirmoqda.

**Siyosiy globallashuv.** Siyosiy globallashuv xalqaro siyosiy aloqalar va tashkilotlarning o‘sishini anglatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Ittifoqi (EU) va Shimoliy Atlantika Sharhonmasi Tashkiloti (NATO) kabi xalqaro tashkilotlar davlatlar o‘rtasida siyosiy hamkorlikni kuchaytiradi va jahon miqyosida siyosiy barqarorlikni ta’minalashga xizmat qiladi. Shuningdek, demokratiya va inson huquqlari sohasidagi global standartlar va siyosiy yo‘nalishlar ham siyosiy globallashuvni ta’minalaydi.

**Texnologik globallashuv.** Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi globallashuvni yanada tezlashtirdi. Internet, mobil texnologiyalar, va sosial tarmoqlar yordamida dunyo bo‘ylab ma'lumotlar, fikrlar va kontent tezda tarqaladi. Amazon<sup>4</sup>, Facebook, Google va Alibaba kabi global texnologik kompaniyalar global bozorga xizmat ko‘rsatib, o‘zining texnologik infrastrukturalarini yaratmoqda. Bu texnologiyalar odamlar o‘rtasidagi masofani qisqartirib, biznes va kundalik hayotni global miqyosda o‘zgartirmoqda.

**Ijtimoiy globallashuv.** Ijtimoiy globallashuv jamiyatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlashni anglatadi. Migratsiya va turizmning rivojlanishi, odamlar o‘rtasidagi madaniy, diniy va ijtimoiy almashinuvni kuchaytiradi. Misol uchun, global ishchi kuchi yoki xalqaro ta’lim orqali o‘zaro ta’sirlar kuchayib, ijtimoiy tarmoqlar hamda organizatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, global ijtimoiy masalalar, masalan, iqlim o‘zgarishi, sog‘liqni saqlash va qashshoqlik kabi masalalar jahon miqyosida hamkorlikni talab qilmoqda.

**Ekologik globallashuv.** Ekologik globallashuv — bu iqlim o‘zgarishi, tabiatni muhofaza qilish va global ekologik muammolarni hal qilishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni anglatadi. Parij iqlim kelishuvi kabi global kelishuvlar, atmosfera ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi va bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan global harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarda xalqaro tashkilotlar, davlatlar va fuqarolik jamiyati o‘rtasida o‘zaro hamkorlik talab qilinadi.

<sup>4</sup> Brad Stone. The Everything Store: Jeff Bezos and the Age of Amazon "Little, Hachette Book Group" 237 Park Avenue, New York, NY 10017

**Ta'lim va ilmiy globallashuv.**Dunyo miqyosida ta'lim tizimlari va ilmiy tadqiqotlar ham global miqyosda integratsiyalashmoqda. Xalqaro universitetlar, ta'lim dasturlari, va ilmiy konferensiyalar dunyo bo'y lab bilim va ma'lumot almashish uchun imkoniyat yaratmoqda. Google Scholar va ResearchGate kabi platformalar orqali ilmiy ishlar global miqyosda o'zaro tarqatiladi va yangi ilmiy tadqiqotlar bir-birini to'ldiradi.Globallashuvning ko'lami har tomonlama rivojlanib borayotgan jarayon bo'lib, u butun dunyo bo'y lab har bir sohada kuchayishi, zamonaviy jamiyatlarning bir-biriga bog'lanishining chuqurlashayotganini ko'rsatadi

**Madaniy globallashuv** ham ba'zi salbiy oqibatlarga olib keldi. Bir tomondan, global miqyosda madaniyatlar o'rtasida almashinuvi ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, boshqa tomondan, mahalliy madaniyatlar va an'analar yo'qolib ketish xavfi tug'ildi. Ko'plab davlatlarda global brendlari va madaniyatlarning kuchayishi, milliy madaniyatlarning kamayishiga olib kelmoqda.

**Siyosiy globallashuv** ham ba'zi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Kuchli davlatlar va yirik xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar kuchaymoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar ko'pincha mustahkam siyosiy ta'sirga ega bo'lмаган holda, yirik mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy siyosatiga bog'lanib qolishadi. Bu esa global siyosatda adolatli va teng huquqli aloqalar o'rnatishga to'sqinlik qiladi.

**Ijtimoiy globallashuvning** salbiy ta'sirlari ham mavjud. Onlayn madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar o'rtasidagi aloqalar ko'payib borgan sari, yolg'izlik, isolatsiya va ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi kabi ijtimoiy muammolar yuzaga keldi. Shuningdek, kiberxavfsizlik muammosi ham jiddiy tahdidiga aylanishi mumkin. Global tarmoq orqali ma'lumotlar almashinuvining osonlashishi, kiberjinoyatlarni va axborot manipulyatsiyasini osonlashtiradi, bu esa ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka tahdid soladi.

**Globallashuvning** salbiy ta'siri.Globallashuv jarayoni bir qator salbiy ta'sirlarni ham keltirib chiqardi. Birinchi navbatda, iqtisodiy tengsizlik o'rtasidagi farqlar kuchayib bormoqda.Afrika va Janubiy Osiyo kabi rivojlanayotgan hududlarda ko'p hollarda transmilliy kompaniyalar o'z ishlab chiqarishlarini joylashtiradi, ammo bu hududlardagi aholi hali ham past daromad olishadi, chunki ishlab chiqarish faqat rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining manfaatlariga xizmat qiladi. Misol sifatida Nike yoki Apple kabi kompaniyalarini ko'rsatish mumkin, ular o'z mahsulotlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqaradi, ammo foyda asosan Amerika yoki Yevropa kompaniyalarining qo'lida qoladi. Buning natijasida, o'sha mamlakatlarning iqtisodiy suvereniteti zaiflashadi, chunki ular o'z resurslarini ishlab chiqarish va eksport qilishda cheklangan nazoratga ega bo'lishadi. Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy bo'linish yanada chuqurlashdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarining bir qismini

rivojlangan mamlakatlar kompaniyalariga bog‘liq qilib qo‘yishdi, bu esa ularning iqtisodiy suverenitetiga zarar etkazishi mumkin. Transmilliy kompaniyalar ko‘pincha past ish haqi bilan ishlaydigan, resurslarni ekspluatatsiya qiladigan va ekologik zarar keltiradigan faoliyatlar yuritib, kichik va o‘rta bizneslarni qisqartirishga olib keladi. Global ish bozori va iqtisodiy o‘zgarishlar sababli, ko‘plab odamlar ingliz tilini o‘rganishga majbur bo‘lmoqda, chunki ingliz tili ko‘plab xalqaro kompaniyalarda ishga joylashish uchun zarur bo‘ladi. Bunday talab kichik va mahalliy tillar uchun resurslarni kamaytiradi, chunki ta’lim tizimi va tilga oid resurslar ko‘proq ingliz tiliga yo‘naltiriladi. Globallashuvning birinchi va eng sezilarli ta’sirlaridan biri — global tillarning (masalan, ingliz tili) dominirlanishi. Ingliz tili, axborot texnologiyalari, biznes, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi global aloqalar orqali jahon bo‘ylab keng tarqalmoqda. Bu tilni bilmagan odamlar global iqtisodiy va madaniy faoliyatlarga qatnasha olmaydi, bu esa kichik va mahalliy tillarning yo‘qolishiga olib keladi.

Misol: Afrika va Osiyoning ba’zi hududlarida mahalliy tillarda ta’lim tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, global ish bozori va diplomatik aloqalar uchun ingliz tilini bilish zarur bo‘lishi, mahalliy tillarni o‘rganish imkoniyatlarini cheklaydi va bu tillarning so‘nib borishiga olib keladi.

### **XULOSA**

Globallashuvning ko‘لامи juda katta bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnologik va ijtimoiy sohalarda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayonlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, globallashuvning salbiy ta’sirlari ham mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy tengsizlikni, madaniyatlarning yo‘qolishiga olib kelishini va siyosiy mustamlakachilikni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Shuning uchun, globallashuv jarayonini boshqarish va uni adolatli tarzda amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlik va tartibga solish zarur bo`ladi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Bordo M. D., Taylor A. M., Williamson J. G. (ed.). *Globalization in historical perspective*. – University of Chicago Press, 2007.
2. Endangered Languages: Language Loss and Community Response, by Lenore A. Grenoble and Lindsay J. Whaley .March 28, 1998
3. Fishman, Joshua A. *Reversing Language Shift: Theory and Practice of Sociolinguistic Support for Language Revival*. Multilingual Matters. 1991.
4. Graddol, David. *English Next: Why Global English May Mean the End of ‘English as a Foreign Language’*. British Council.2006.
5. Harrison, C. David. (2010). *When Languages Die: The Extinction of the World's Languages and the Erosion of Human Knowledge*. Oxford University Press
6. Hinton, Leanne. *Bringing Our Languages Home: Language Revitalization for Families*. Heyday Books.2013.
7. Krauss, Michael E. *The World's Languages in Crisis*.1992.68(1), 4-10.

8. Language Death, by David Crystal .Paperback, 2002
9. Labov, William. The Social Stratification of English in New York City (2nd ed.). Cambridge University Press.1997.
10. Stearns P. N. Globalization in world history. – Routledge, 2023.

